

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QURBONOV SHOVI DJURAYEVICH**

**SITRUS MEVALAR YETISHTIRISHNI IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH  
YO‘LLARI**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoroferati  
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

<b>Qurbonov Shovqi Djurayevich</b> Sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag'batlantirish yo'llari.....	3
<b>Курбонов Шовки Джураевич</b> Пути экономического стимулирования выращивания цитрусовых ....	27
<b>Qurbonov Shovqi Djurayevich</b> Ways to economically stimulate the cultivation of citrus fruits .....	53
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	58

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QURBONOV SHOVI DJURAYEVICH**

**SITRUS MEVALAR YETISHTIRISHNI IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH  
YO'LLARI**

**08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt.2122-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Ubaydullaev Kayrulla**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Farmanov Jonibek Ziyadullayevich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» aprel kuni soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (290 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «27» mart kuni tarqatildi.

(2025-yil «27» mart dagi 70 raqamli reestr bayonnomasi)



**J.K.Sauxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**R.B.Utumuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, PhD, dotsent

**B.S.Qalmuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi sonining o'sish tendensiyasi saqlanib qolayotganligi sababli ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xususan pandemiya kabi holatlarda inson immun tizimini kuchaytirishga yordam beradigan meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmini kengaytirishga qaratilgan islohotlar ko'lami ortib bormoqda.

Bunda asosiy e'tibor vitaminga boy sitrus mevalarning maydoni va hosildorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish, subtropik mintaqadan boshqa mintaqalarga kengaytirish masalalari dolzarb yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "xalqaro tadqiqot markazlari tomonidan ushbu maqsadlar uchun yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar so'nggi 4 yilda 30 foizgacha ortgan hamda 2040-yilga borib 2,5 barobargacha ortishi kutilmoqda". BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) mutaxassislarining fikricha, "bugungi kunda 140 dan ortiq mamlakatda sitrus mevalar yetishtirilayotgan bo'lsa, kelgusi 30 yilda himoyalangan maydonlar sabab ularning soni 25 foizgacha ortadi". Bundan ko'rinadiki, jahon miqyosida sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag'batlantirish masalalari o'zining dolzarbligini namoyon etmoqda.

Global tabiiy-iqlim o'zgarishi hamda ekologik inqirozlar ta'sirida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami kengayib bormoqda. Noan'anaviy dehqonchilik, jumladan yerlarning degradatsiyasi va iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiladigan himoyalangan maydonlarda mahsulot yetishtirish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sitrus mevalarning yangi serhosil hamda iqlimga moslashuvchan navlarini yaratish orqali unga bo'lgan talabni qondirish masalalari bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholini sitrus mevalar bilan ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, limonchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun qulay agrobiznes muhiti yaratilayotgan bo'lsa, boshqa turdagi sitrus mevalar importi uchun bojxona imtiyozlari berilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda yetishtirilgan limonga tashqi bozorda talabning ortib borishi sharoitida eksportni rag'batlantirish dastaklaridan foydalanilmoqda. Yangi innovatsion texnologiyalar yordamida noan'anaviy, xususan, kivi va mandarin kabi sitrus mevalarni mamlakatimizda yetishtirishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi sharoitida "...innovatsion texnologiyalar asosida yangi, serhosil va jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan navlarni yaratishga yetarli e'tibor berilmayotganligi, sifatli axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi, kooperatsiya munosabatlari to'liq shakllanmaganligi oqibatida sohadagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmayapti". Yuqoridagilarga asosan mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish ko'lamini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-151-son "Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy

etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 20-fevraldagi PQ-4610-son "Limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 6-martdagi PQ-3586-son "O'zbekiston Respublikasida limonchilik sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirishda iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy masalalari xorijiy hamda respublikamiz olimlari tomonidan qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Ye.A.Yegorov, I.M.Kulikov, A.V.Glotko, I.P.Shalyapina kabi xorijiy, N.S.Xushmatov, O.T.Jumayev, O.Dilmurodov, M.U.Achilov, Sh.Murodov, O.Sattarov, shuningdek bevosita himoyalangan maydonlarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish borasida S.Iskandarov, A.Durmanov, R.Imomov va boshqalarning tadqiqotlari hamda ular orqali olingan ilmiy natijalari e'tiborga molik.

Ammo, ushbu tadqiqot ishlarida asosan meva-sabzavotchilik tarmog'ining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan izlanishlar olib borilgan bo'lib, bevosita sitrus mevalar yetishtirish iqtisodiy samaradorligi, ayniqsa intensiv, resurstejamkor texnologiyalar asosida mamlakatimiz uchun noan'anaviy sitrus mevalarni yetishtirish samaradorligining iqtisodiy jihatlari bilan bog'liq ilmiy-amaliy asoslari o'rganilmagan. Shu bois, mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish hamda tarmoq samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati dissertatsiya mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Respublikada sitrus mevalarni yetishtirish tizimini rivojlantirish va tarmoq samaradorligini oshirishni rag'batlantirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sitrus mevalar yetishtirish tizimini rivojlantirishning obyektiv zaruriyatini ochib berish va nazariy asoslarini tadqiq etish;

sitrus mevalar yetishtirish tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida unga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash;

sitrus mevalar yetishtirish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil etish;

sitrus mevalar yetishtirishning rivojlanishi va mahsulot yetishtirishning hozirgi holatini tahlil qilish;

sitrus mevalar yetishtirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish darajasi tahlillari asosida tavsiyalar tayyorlash;

turli xo‘jalik yuritish subyektlarida citrus mevalar ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining tahlili bo‘yicha xulosalar ishlab chiqish;

sitrus mevalar yetishtirishni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

sitrus mevalar yetishtirishni davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

sitrus mevalar yetishtirishda tashkiliy va boshqaruv tuzilmalari faoliyatini oshirish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyatida citrus mevalar yetishtirish tizimi rivojlanishining uzoq davrga mo‘ljallangan prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida citrus mevalar yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** citrus mevalar yetishtirish faoliyatida yuzaga keladigan tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik, taqqoslama tahlil, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatish va ekonometrika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

issiqlikdan foydalanish samaradorligi hamda uglevod ajratmalari kabi indeksarga ko‘ra barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini joriy etishni “nobarqaror” [0,1-0,33], “turg‘un” [0,34-0,61] va “barqaror” [0,62-1,0] darajalardagi baholash mezonlari asoslangan;

sitrus mevalarni yetishtirishni davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirishda eksportyor korxonalarining transport xarajatlarining bir qismini qoplab berishda valyuta kursiga asoslanish, energiya sarfini liberallashtirish, tomorqa yerining sifat ko‘rsatkichidan kelib chiqqan holda tabaqali soliq qo‘llash taklifi asoslangan;

kichik hajmda mahsulot yetishtiruvchi dehqon xo‘jaliklariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida “Sitrus mevalar yetishtiruvchilarga xizmatlar ko‘rsatish markazi” hamda markaz tarkibida hududlarda faoliyat yurituvchi “Sitrus diagnostika markazlari”ni tashkil etish taklifi asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida istiqbolda aholi bandligi, energiya ta‘minoti va eksport-import ko‘rsatkichlaridagi tendensiyalarni inobatga olgan holda citrus mevalarni yetishtirish hajmi o‘zgarishining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

turli tip va avlodlarga mansub bo‘lgan himoyalangan maydonlarda citrus mevalarni yetishtirish samaradorligi taqqoslama tahlillari yordamida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan energiya samaradorlik, qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat yaratish kabi islohotlarga mos bo‘lgan maqbul texnologiyalardan foydalanish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

sitrus mevalar yetishirishda yetakchi bo'lgan, jumladan mamlakatimiz kabi himoyalangan maydonlarda mahsulot yetishtirayotgan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi atroflicha o'rganilgan holda ularning samarali tajribalaridan mamalkatimizda foydalanish imkoniyatlari yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

sitrus mevalarni sotish, qadoqlash va saqlash orqali qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari yuqoriligini inobatga olgan holda dehqon xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan metodik yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan, monografik kuzatuv natijalari asosida olinganligi, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy takliflardan sitrus mevalar iqtisodiyoti bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning uslubiy asoslarini boyitish, tarmoqni erkin bozor munosabatlari qonuniyatlari asosida barqaror rivojlantirish va samaradorligini oshirish borasidagi bilimlar ko'lamini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida ilgari surilgan amaliy taklif va tavsiyalardan hududlarda tarmoqni rivojlantirish dasturlari va tegishli qarorlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" va "Mikroiqtisodiyot" fanlarini o'qitishda hamda ular o'quv dasturlarini takomillashtirish, keys-stadilar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy etilishi.** O'zbekistonda sitrus mevalarni yetishtirish tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

issiqlikdan foydalanish samaradorligi hamda uglevod ajratmalari kabi indeksarga ko'ra barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotini joriy etishni "nobarqaror" [0,1-0,33], "turg'un" [0,34-0,61] va "barqaror" [0,62-1,0] darajalardagi baholash mezonlaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-874-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu ko'rsatkichlar turli toifadagi xo'jaliklar kesimida ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish va ular orqali yirik va mayda sitrus mahsulotlarini yetishtirayotgan xo'jaliklarda xarajatlar hisobini yuritish, resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini bergan;

sitrus mevalarni yetishtirishni davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirishda eksportyor korxonalarining transport xarajatlarining bir qismini qoplab berishda valyuta kursiga asoslanish, energiya sarfini liberallashtirish, tomorqa yerining sifat ko'rsatkichidan kelib chiqqan holda tabaqali soliq qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi

05/06-02-874-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sitrus yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini iqtisodiy rag'batlantirish, ya'ni ularga soliq, kredit, bojxona imtiyozlarini berish, subsidiyalar ajratish va xarajatlarning bir qismini qoplash, shuningdek, ajratilgan yerlarda iqlim sharoitini hisobga olgan holda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, mazkur fermer xo'jaliklarida hududiy yondashuvlarni ishlab chiqish orqali tabaqalashtirilgan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini 20-25 foizga oshirish imkonini bergan;

kichik hajmda mahsulot yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirish maqsadida "Sitrus mevalar yetishtiruvchilarga xizmatlar ko'rsatish markazi" hamda markaz tarkibida hududlarda faoliyat yurituvchi "Sitrus diagnostika markazlari"ni tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-874-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sitrus mevalarni yetishtirishda ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish, sitrus mevalarining integratsiyalashuv jarayonidagi xizmatlar samaradorligini oshirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini rivojlantirish, maslahat-servis tuzilmalarini rag'batlantirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va bozorgirlligini oshirishga va raqobatbardosh mahsulotlar hajmini 25-30 foizga oshirish imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyatida istiqbolda aholi bandligi, energiya ta'minoti va eksport-import ko'rsatkichlaridagi tendensiyalarni inobatga olgan holda sitrus mevalarni yetishtirish hajmi o'zgarishining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi 05/06-02-874-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida prognoz ko'rsatkichlaridan mahsulot ishlab chiqarish, sotish, bozor talabini qondirish, hududlarda qisqa va o'rta muddatli dasturlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish hamda iste'mol tovarlari bozorida talab va taklif muvozanatini to'g'ri taqsimlash, savdo va xizmat ko'rsatish samaradorligini 25 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda jami 6 ilmiy maqola, shundan 5 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ilmiy ish kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya 129 bet bo'lib, unda 25 ta jadval, 16 ta rasm keltirilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag‘batlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag‘batlantirishning ahamiyati va zaruriyati, sitrus mevalar yetishtirish samaradorligini baholash hamda rivojlangan davlatlarda sitrus mevalarni yetishtirish tajribalari o‘rganilgan holda ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Mustaqillik yillarida bog‘dorchilik tarmog‘i qishloq xo‘jaligining umumiy yo‘nalishi sifatida qaralgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda bog‘dorchilikning alohida tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan agroislohotlar olib borilmoqda. Bu yong‘oqchilik, limonchilik, gilos kabi yo‘nalishlarda alohida qaror va me‘yoriy hujjatlar qabul qilinib, ularni tashkiliy va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos dastaklari ishlab chiqilmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish, iqtisodiy samaradorligini aniqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, rag‘batlantirishga oid dastaklarning bozor mexanizmlarini joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni dolzarblashtirmoqda.

Yuqoridagilarga asosan ta‘kidlash mumkinki, sitrus mevalar yetishtirish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolda dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylanib, uning ilmiy va amaliy asoslarini doimiy ravishda o‘rganib borishni taqazo etadi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimizda sitrus mevalar yetishtirish zaruriyati quyidagi bir qator omillar ta‘sirida yuzaga kelayotgan bo‘lib, uning fundamental asosini, istiqboldagi konsentual yo‘nalishlarini ishlab chiqishda mana shu jihatlarni hisobga olgan holda yondashish maqsadga muvofiq (1-rasmga qarang).

Mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirishni rivojlanish bosqichlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, uni tashkiliy va iqtisodiy shart sharoitlardan kelib chiqqan holda shartli ravishda 4 ta bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda 1991-2005 yillarni o‘z ichiga olib unda, sitrus mevalar, jumladan limon yetishtirishga oid tashkiliy asoslar ishlab chiqilgan. Ikkinchi bosqichni 2006-2016 yillarni kiritish mumkin bo‘lib, bu davrda meva-sabzavotchilik shirkatlari tugatilgan holda fermer xo‘jaliklari tashkil etilgan. Bu esa fermerlar tomonidan mustaqil ravishda kichik hajmda sitrus mevalar yetishtirishni yo‘lga qo‘yishga turtki bergan. Uchinchi bosqich esa, 2017-2020 yillarni o‘z ichiga qamrab olib, unda sitrus mevalardan limon yetishtirishda alohida e‘tibor qaratilgan. Sohaga oid bir qator qarorlar qabul qilingan. Limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi tashkil etilgan. 2020-yildan bugungi davrgacha bo‘lgan to‘rtinchi bosqichda nafaqat limon, balki sitrus mevalarning boshqa turlarini ham etishtirishni keng rivojlantirishga zamin yaratilmoqda.



**1-rasm. Sitrus mevalar yetishtirish tizimini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi holatlar<sup>1</sup>**

Tadqiqotlarimizda sitrus mevalar yetishtirishga ta'sir qiluvchi omillar 4 yirik guruhlariga, xususan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Sitrus mevalarni yetishtirish samaradorligini mikro va makro darajada o'rganish mumkin bo'lib, mikro darajada samaradorlikning mahsulot yetishtiruvchi xo'jalik faoliyati samarasiga ta'sirini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini qamrab olishi mumkin. Makro darajada esa iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'siri ortayotgan, resurslar taqchilligi sezilib borayotgan, energetik krizislar davriyligi ortib borayotgan bugungi sharoitda energiya sarfidan tortib, atmosferaga ajratmalargacha bo'lgan turli jihatlarni kompleks baholashga bo'lgan zaruriyat sezilib bormoqda. Bunday kompleks baholashda rivojlangan davlatlarda olib borilayotgan sohaga oid ilmiy tadqiqotlarda matematik modellardan foydalanishga ustuvorlik berilayotganligini hamda indeks baholash usullari keng qo'llanilayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlar asosida himoyalangan maydonlarda sitrus mevalarni yetishtirish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari sifatida energiyadan foydalanish samaradorligi, suvdan foydalanish samaradorligi, uglevod

<sup>1</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ajratmalari va issiqlikdan foydalanish samaradorligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Energiyadan foydalanish samaradorligi bu bir birlik mahsulot yetishtirish uchun sarf etilgan energiya miqdorini o'zida aks ettirib, u jami yetishtirilgan mahsulot miqdoriga himoyalangan maydonni isitish uchun sarf etilgan energiya miqdoriga nisbati orqali hisoblanadi hamda quyidagi formulada o'z aksini topgan.

$$EFS = \frac{IchMH}{SeE}, \quad (1)$$

bu yerda,

EFS - energiyadan foydalanish samaradorligi, kg/m<sup>3</sup>;

IchMH – himoyalangan maydonda yetishtirilgan mahsulot miqdori, kg;

SeE – sarf etilgan energiya miqdori, m<sup>3</sup> (kw).

Himoyalangan maydonlarda suvdan foydalanish samaradorligi esa bir birlik mahsulotni yetishtirish uchun sarf etilgan suv miqdorini o'zida ifoda etib, jami yetishtirilgan mahsulotni sarf etilgan suv miqdoriga nisbati orqali hisoblash mumkin.

$$SfS = \frac{IchMH}{SeS}, \quad (2)$$

bu yerda,

SfS - suvdan foydalanish samaradorligi, kg/m<sup>3</sup>;

IchMH – himoyalangan maydonda yetishtirilgan mahsulot miqdori, kg;

SeS – sarf etilgan suv miqdori, m<sup>3</sup>.

Uglevod ajratmalari koeffitsiyenti issiqxonalarda yoqilg'idan foydalanish natijasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining miqdorini o'zida ifoda etib, odatda har bir yoqilg'i turi uchun soatiga chiqariladigan issiqxona gazlarining o'rtacha miqdori to'g'risidagi hisobotlardan foydalaniladi.

$$Ua = \sum_{i=1}^n (Ei * Efi), \quad (3)$$

bu yerda,

Ua - uglevod ajratmalari koeffitsiyenti, kg/m<sup>3</sup>;

Efi – himoyalangan maydonda sarf etilgan energiya miqdori, m<sup>3</sup>;

Ei – emissiya koeffitsiyenti;

n – foydalanilgan energiya turlari soni.

Issiqlik samaradorligi himoyalangan maydonlarda issiqlikni qanchalik samarali boshqarishni o'zida ifoda etib, o'simliklar uchun optimal haroratni saqlab turish imkoniyatlarini baholaydi.

$$IfS = \frac{FiCh}{UIk} * 100\%, \quad (4)$$

bu yerda,

IfS - issiqlik samaradorligi, %;

FiCh – himoyalangan maydonda jami saqlangan issiqlik (foydali energiya) miqdori, kw/soat;

Uik – umumiy issiqlik miqdori, kw/soat.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida issiqxonalarda sitrus mevalarni yetishtirishda barqarorlik indeksini (Sustainability Index) ishlab chiqishimiz mumkin bo‘lib, u orqali himoyalangan maydonlarda sitrus mevalarni yetishtirish samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Yuqoridagilar asosida himoyalangan maydonlarda sitrus mevalarni yetishtirishda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini joriy etishni indeks baholash mumkin bo‘lib, uni quyidagicha ifodalash imkoniyatini beradi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Himoyalangan maydonlarda sitrus mevalarni yetishtirishda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini joriy etishni indeks baholash<sup>2</sup>

Ko‘rsatkichlar	Barqarorlik indeksining toifalanishi			Barcha toifalar uchun o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida
	Isitish manbai sifatida tabiiy gazdan foydalangan holatlar uchun	Isitish manbai sifatida ko‘mir va boshqa muqobil energiyadan foydalangan holatlar uchun	Isitish manbai sifatida an’anaviy (organik o‘g‘it) usuldan foydalangan holatlar uchun	
Nobarqaror	0.1-0.3	0.1-0.5	0.1-0.2	0.10 – 0.33
Turg‘un	0.4-0.6	0.6-0.7	0.3-0.5	0.34 – 0.61
Barqaror	0.7-1.0	0.8-1.0	0.6-1.0	0.62 – 1.0

Xususan, barqaror, turg‘un va nobarqaror indekslar asosida baholanganda energiya samaradorligi indeksi chegaralari biroz tebranishi mumkin. Bunda mamlakatimiz sharoitidagi kabi isitish manbai sifatida foydalanilayotgan yoqilg‘i turiga va uning rivojlanish dinamikasiga mos ravishda shakllanadi. Shundan kelib chiqqan holda isitish manbai sifatida tabiiy gazdan foydalangan holatlar uchun, isitish manbai sifatida ko‘mir va boshqa muqobil energiyadan foydalangan holatlar uchun hamda isitish manbai sifatida an’anaviy (organik o‘g‘it) usuldan foydalangan holatlar uchun alohida indekslar ishlab chiqish mumkin.

Jumladan, isitish manbai sifatida tabiiy gazdan foydalangan holatlar uchun himoyalangan maydonlarda sitrus mevalarni yetishtirishda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini joriy etishni nobarqaror deb baholash uchun 0.1-0.3 oraliqda, turg‘un bo‘lishi uchun 0.4-0.6 oraliqda va barqaror bo‘lishi uchun 0.74-1.0 oraliqda bo‘lishi tavsiya etiladi. Isitish manbai sifatida ko‘mir va boshqa muqobil energiyadan foydalangan holatlar uchun esa nobarqaror deb baholash uchun 0.1-0.5 oraliqda, turg‘un bo‘lishi uchun 0.6-0.7 oraliqda va barqaror bo‘lishi uchun 0.8-1.0 oraliqda bo‘lishi mumkin. Shuningdek, isitish manbai sifatida an’anaviy (organik o‘g‘it) usuldan foydalangan holatlar uchun nobarqaror deb baholash uchun 0.1-0.2 oraliqda, turg‘un bo‘lishi uchun 0.3-0.5 oraliqda va barqaror bo‘lishi uchun 0.6-1.0 oraliqda bo‘lishi mumkin.

<sup>2</sup> Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu indekslarning barcha toifalar uchun o‘rtacha ko‘rsatkich asosida mos ravishda nobarqaror [0.10 – 0.33], turg‘un [0.34 – 0.61] va barqaror [0.62 – 1.0] kabi indekslarda baholash tavsiya etiladi.

**“Sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag‘batlantirishning hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikamizda sitrus mevalar yetishtirishning bugungi holati tahlili hamda Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish dinamikasi tahlil etilgan hamda xulosalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda yetishtirilayotgan sitrus mevalar orasida limon hamon yetakchilik qilib, asosiy turdagi mahsulotligicha qolmoqda. Shunga qaramasdan so‘nggi yillarda kivi, mandarin va banan yetishtirish imkoniyatlari o‘zlashtirilayotganligini raqamlarda kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 2017-yilda jami sitrus mevalar maydoni va mahsulot hajmiga nisbatan limon 99,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 99,1 va 2023-yilga kelib 98,5 foizgacha qisqargan holda kivi ulushi 2017-yildagi 0,2 foizdan 2023-yilda 1,1 foizgacha oshganligini kuzatishimiz mumkin (2-jadval).

## 2-jadval

### Mamlakatimizda yetishtirilayotgan sitrus mevalar va ularning umumiy hajmdagi ulushi, foizda<sup>3</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar			
	2017	2019	2021	2023
Jami sitrus mevalar maydoni va mahsulot hajmiga nisbatan, foizda	100	100	100	100
Shundan				
Limon	99,4	99,4	99,1	98,5
Kivi	0,2	0,2	0,5	1,1
Mandarin	0,1	0,1	0,1	0,1
Banan	0,1	0,1	0,1	0,2
Boshqa	0,2	0,2	0,2	0,1

Asosiy mahsulot limon ekanligidan kelib chiqqan holda tarmoq rivojlanishining tendensiyasida u bilan bog‘liq tarkibiy o‘zgarishlar olib borilganligini, mahsulot yetishtiruvchilarga qulay agrobiznes muhitini yaratib berish borasida izchil islohotlar olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizda sitrus mevalar, xususan limon yetishtirish dehqon xo‘jaliklariga qo‘shimcha daromad manbai sifatida qaralib, u kam mehnat talabligi hamda aylanmadan chiqib ketgan yerlarda ham yetishtirish imkoniyatlari yuqoriligi bois doim qiziqish uyg‘otgan va bu qiziqish yaratilgan imkoniyatlar tufayli yanada ortib bormoqda. Buni hududlar kesimida limonzorlar maydoni o‘zgarish dinamikasida (2017-yildan buyon 106,1 foiz o‘shish) ham kuzatish mumkin (3-jadvalga qarang).

Tadqiqotlar davomida statistik raqamlarning yetishmasligi yoki lozim darajada yuritilmasligi sharoitida monografik o‘rganishlarga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan Qashqadaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklar tomonidan sitrus

<sup>3</sup> Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

mevalar issiqxonalarini tashkil etish xarajatlari, daromadlari hamda uni rentabellik darajasi kabi bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etildi.

### 3-jadval

#### Respublika bo'yicha hosilga kirgan limon maydoni o'zgarish dinamikasi<sup>4</sup>

№	Hududlar nomi	Shundan yillar kesimida limonzorlar maydoni, ga				2023 yil 2017 yilga nisbatan, foizda
		2017	2019	2021	2023	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	1	0,9	0,4	40,0
2	Andijon	98	118	124	136	138,8
3	Buxoro	19	20	22	18	94,7
4	Jizzax	14	15	15	46	328,6
5	Qashqadaryo	65	68	72	52	80,0
6	Navoiy	12	12	15	9	75,0
7	Namangan	25	28	35	43	172,0
8	Samarqand	21	20	23	10	47,6
9	Surxondaryo	101	98	119	103	102,0
10	Sirdaryo	0	0	0	0	-
11	Toshkent	19	18	22	16	84,2
12	Farg'ona	235	265	291	221	94,0
13	Xorazm	0	0	0	1	-
<b>Jami</b>		<b>609</b>	<b>662</b>	<b>739</b>	<b>646,4</b>	<b>106,1</b>

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaligi 0,01 gektar (1 sotix) tomorqa maydonida xandaq usulidagi issiqxonada limon yetishtirish orqali ikkinchi yildan 358 foiz rentabellikka erishgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 323 foizni va 2023-yilda 875 foizni tashkil etgan. Boshqacha qilib aytganda issiqxonada limon yetishtirish 3 yilda o'zini to'liq oqlagan. 15 yil davomida hosil berishini e'tiborga olganda foydalanishdan chiqqan tomorqalarda minimal xarajat (yiliga o'rtacha 600-800 ming) hisobiga qo'shimcha daromad olish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin (4-jadvalga qarang).

Mazkur xo'jalikning jami yer maydoni 15 sotix bo'lib, shundan 2020-yilda 1 sotix maydoniga issiqxonada limon yetishtirishni yo'lga qo'ygan. Ushbu maydonga 10 tup limon ko'chatini 500 ming so'mga xarid qilgan hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash uchun 450 ming so'mlik preparatlarni sotib olgan. Shuningdek, elektr va boshqa xarajatlar uchun 600 ming so'm sarf etgan.

Limonlar ikkinchi yildan ya'ni 2021 yildan kichik miqdorda bo'lsada hosilga kirgan. Shuning uchun birinchi va ikkinchi yillarda limon orasiga sarimsoq piyozini ekish imkoniyati mavjud bo'lgan. Oraliq ekin ekish xo'jalikka ikki yilda qo'shimcha 7660 ming so'm daromad keltirgan. 2023-yilga kelib, xo'jalik issiqxonani joriy ta'mirlash uchun 200 ming so'm (plyonkalarini yangilash uchun), zararkunandalarga qarshi preparatlar uchun 200 ming so'm va boshqa xarajatlar uchun 200 ming so'm sarf etgan holda 325 kg limon yig'ib olgan. Mazkur yilda bir kg limon bozor bahosi 18 ming so'm ekanligini inobatga olganda jami 5850 ming

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

so‘m daromadga erishgan va 5250 ming so‘m foyda qilgan.

#### 4-jadval

### **Qashqadaryo viloyati Karshi tumanida faoliyat yuritayotgan dehqon xo‘jaliklarida xandaq usulidagi issiqxonada limon yetishtirish iqtisodiy ko‘rsatkichlari<sup>5</sup>**


Ko‘rsatkichlar		Yillar			
		2020	2021	2022	2023
Xo‘jalikning umumiy yer maydoni, ga		0.15	0.15	0.15	0.15
Shundan limon maydoni, ga		0.01	0.01	0.01	0.01
Sarf etilgan jami xarajatlar miqdori, ming so‘m		7 850	800	700	600
shundan	Issiqxona qurish va joriy ta‘mirlash xarajatlari, ming so‘m	6 300	300	200	200
	Limon ko‘chatlarini xarid qilish xarajatlari, ming so‘m	500	0	0	0
	Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlari, ming so‘m	450	300	300	200
	Boshqa xarajatlar, ming so‘m	600	200	200	200
1 tup limon daraxti hosildorligi		x	3,0-3,5	15-20	30-35
Yalpi hosil		200	235	185	325
shundan	oralik ekin sifatida sarimsoq-piyozdan olingan hosil, kg	200	180	0	0
	asosiy ekin sifatida limon yalpi hosili, kg	0	35	185	325
Yalpi daromad, ming so‘m		4 000	3 660	2 960	5 850
Foyda, ming so‘m		-3 850	2 860	2 260	5 250
Rentabellik darajasi, %		-49	358	323	875

Xulosa qilish mumkinki, dehqon xo‘jaliklarida limon yetishtirish uchun asosiy xarajatlar birinchi va ikkinchi yillarga to‘g‘ri kelib, bu handak usulida issiqxonani qurish va ko‘chat bilan bog‘liq bir martalik xarajatlar bo‘lib u keyingi yillarda boshqa sarf etilmaydi. Qolgan yillarda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish orqali 15 yil davomida qo‘shimcha daromad manbai shakllanadi.

Izlanishlar olib borish jarayonida Qashqadaryo viloyatida 2022-2023 yillar maboynida jami 50 nafar sitrus mevalarni yetishtiruvchi xo‘jaliklar o‘rtasida sohada mavjud muammolarni aniqlash, taklif va tavsiyalarni yig‘ish maqsadida ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ijtimoiy so‘rovnomalarda ishtirokchilardan sitrus mevalarni yetishtirish va uni sotishda amaliyotda kuzatilayotgan muammolar xususidagi qarashlari o‘rganilganda ularning 39 foizi sitrus mevalarni yetishtirishda ishonchli ko‘chat bilan ta‘minlash xizmati mavjud emasligi, 24 foizi yetishtirish agrotexnologiyasini o‘rgatish bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatuvchilar yetishmasligi, 18 foizi yetishtirilgan mahsulotni saqlash va uni qayta ishlash korxonalari yetishmasligi, 26 foizi pishgan vaqtda bahosining keskin pasayib ketishi natijasida oldindan bahoni prognoz qilish imkonsizligi, 52 foizi changlatish, gulini saqlab qolish, mevasiga kasallik va zararkunandalar ta‘siri yuqoriligi bois qiziqish pasayib borayotganligini hamda 20 foizi oila va yaqin qarindoshlar uchun

<sup>5</sup>Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

kichik hajmda yetishtirish dehqon xo‘jaligi uchun optimal tanlov ekanligini ta’kidlamogda (2-rasm).



1. Sitrus mevalarni yetishtirishda ishonchli ko‘chat bilan ta‘minlash xizmati mavjud emasligi.
2. Yetishtirish agrotexnologiyasini o‘rgatish bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatuvchilar yetishmasligi.
3. Yetishtirilgan mahsulotni saqlash va uni qayta ishlash korxonalari yetishmasligi.
4. Pishgan vaqtda bahosining keskin pasayib ketishi natijasida oldindan bahoni prognoz qilish imkonsizligi.
5. Changlatish, gulini saqlab qolish, mevasiga kasallik va zararkunandalar ta‘siri yuqoriligi bois qiziqish pasayib borayotganligi.
6. Oila va yaqin qarindoshlar uchun kichik hajmda yetishtirish dehqon xo‘jaligi uchun optimal tanlov ekanligi.

**2-rasm. Sitrus mevalarni yetishtirishda amaliyotda kuzatilayotgan muammolar** (so‘rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning jamiga nisbatan ulushi, % da, kamida 2 ta javob belgilangan)<sup>6</sup>

“Sitrus mevalar yetishtirishni iqtisodiy rag‘batlantirish yo‘nalishlari” deb nomlangan uchinchi bobida sitrus mevalar yetishtirishni davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirish hamda sitrus mevalarni yetishtirishni davlat tomonidan tashkiliy rag‘batlantirish yo‘llari, shuningdek, Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmi o‘zgarishi hamda istiqbollari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish va uni sotish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini belgilab olishda quyidagi bir qator holatlar saqlanib qolayotgan bo‘lib, ular tarmoqning barqaror rivojlanishiga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘rkazmoqda. Xususan:

- mamlakatimizda sitrus mevalar, xususan limon yetishtirishda foydalanilayotgan issiqxonalarning salmoqli qismi oddiy tipdagi issiqxonalar bo‘lib, ularda resurslar sarfi yuqoriligi natijasida yetishtirilgan mahsulotning raqobatbardoshligi pasayib borayotganligi;

- mahsulot yetishtirilayotgan issiqxonalarda o‘simlik uchun optimal haroratni ta‘minlashda asosan gaz va o‘tindan foydalanilayotgan bo‘lib, tarmoqni modernizatsiya qilish, muqobil energiya vositalardan keng foydalanish, bunda qo‘shimcha tarmoqlar bilan integratsiyalashtirish (bir tarmoqdagi energiyani boshqa tarmoqqa yo‘naltirish) ta‘minlanmaganligi;

- issiqxonalar konstruksiyasi hamda uni qurish tajribasi an’anaviy bo‘lib, gidroponika, aeroponika, alternativ issiqlik asosida ishlovchi zamonaviy

<sup>6</sup> Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomalar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

issiqxonalarda mahsulot yetishtirish uchun xo‘jaliklarning iqtisodiy salohiyati pastligi;

- tarmoqda ilm-fan va amaliyotning intergatsiyasi ta‘minlanmaganligi, ko‘chatchilik sohasida ilmiy muassasalar bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida asosiy ko‘chatlar importga bog‘liqligi yuqoriligicha saqlanib qolayotganligi;

- sitrus mevalar yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi alohida biznes subyektlari rivojlanmaganligi, ularni saqlash, yetkazib berish, qayta ishlash hamda eksport qilishga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlarining past darajada rivojlanganligi;

- sitrus mevalarni yetishtirish va ko‘chatlarni parvarishlash bilan bog‘liq bilim va tajribalarning yetishmasligi, tarmoqning mavsumiyligi bois yil davomida malakali mutaxasislarni saqlab qolishning imkoniyati yo‘qligi;

- dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan kichik hajmli muhsulotlarni tizimli tarzda yig‘ib olish, saqlash va kolibirovka qilish bilan shug‘ullanuvchi logistik markazlari yetishmasligi;

- kichik hajmli, mobil saqlash omborxonalarini yetishmasligi, ularni qurish va saqlash xarajatlarining (ayniqsa energiya xarajatlarining) yuqoriligi bois jozibador investitsiya muhiti yetishmasligi;

- mamlakatimiz uchun noan‘anaviy sitrus mevalarni yetishtirish, targ‘ib qilish va ko‘chatlarini yil davomida saqlashni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning yetishmasligi;

- sohada agroturizm rivojlanmaganligi, aholi tomonidan issiqxonaning o‘zida mevani uzib olib iste‘mol qilish, uning agrotexnologiyalarini bajarilishida birgalikda ishtirok etish bilan bog‘liq moddiy texnik imkoniyatlari yaratilmaganligi;

- tarmoqning manzarali dehqonchilik bilan shug‘ullanish imkoniyati yuqori bo‘lib, xonadonlarning ichida tuvaklarda manzarali tarzda mahsulot yetishtirishni qo‘llab-quvvatlash tizimlarining rag‘batlantirilmasligi;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda globallashtirish, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, iqtisodiy munosabatlarning jadal o‘zgarib borishi hamda aholining agrobiznes faoliyatiga bo‘lgan tadbirkorlik kayfiyati o‘zgarishini inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shu bois sitrus mevalarni yetishtirishni davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini tizimlashtirib, ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan birgalikda bir qator takliflar ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Sitrus mevalarning salmoqli qismi eksportga yo‘naltirilayotganligini e‘tiborga olgan holda transport xarajatlarining bir qismini subsidiyalash taklif etiladi.



**3-rasm. Mamlakatimiz sharoitida sitrus mevalarni yetishtirishni davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari<sup>7</sup>**

Ma’lumki, amaliyotda ushbu rag‘batlantirish mexanizmi joriy etilgan bo‘lib, u qat’iy belgilangan summalarga bog‘langan. Ammo, eksport qilishda transport xarajatlari asosan xorijiy valyutaga bog‘liqligi hamda uning yillik o‘rtacha 10-13 foizgacha tebranib turishi yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Shu bois bizningcha, sitrus mevalarni eksport qiluvchilarning transport xarajatlarini qat’iy belgilangan miqdordagi subsidiyalashdan voz kechib, xorijiy valyuta kursiga mos tebranuvchan subsidiyalash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda transport xarajatlarini kompensatsiyalashda bojxona reyestriga kiritilgan kundagi markaziy bank valyuta kursining 0,07 foizi miqdorida belgilash

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

taklif etilmoqda. Bu orqali eksportyor korxonada amaldagi tizimga nisbatan tabaqalashgan tizim orqali mavsum davomida 2 barobargacha qo‘shimcha rag‘batlantiriladi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Sitrus mevalarni eksport qilishda transport xarajatlarining ma’lum qismini qoplab berishda eguluvchan dastaklarni qo‘llashning farqli jihatlari<sup>8</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birliklari	Amalda mavjud tartibga ko‘ra	Taklif		
			01.03.2024 holatiga ko‘ra	01.10.2024 holatiga ko‘ra	
Limon ekporti miqdori	kg	18000	18000	18000	
Limon ekporti qiymati	ming so‘m	198000	19800	19800	
Iste‘molchiga yetkazib berish jami xarajatlari qiymati	ming so‘m	25650	25650	25650	
Belgilangan subsidiya miqdori	so‘m	480	Valyuta kursi * 0.07%		
Kompensatsiya miqdorini aniqlash usuli	Qat’iy belgilangan subsidiya asosida	ming so‘m	8640	9774	1004
	Eksport qiymatiga nisbatan (5%)	ming so‘m	9900	9900	9900
	Tashish xarajatlarining yarmi	ming so‘m	12825	12825	12825
Mahsulot yetishtiruvchiga to‘lab beriladigan kompensatsiya miqdori	ming so‘m	8640	9900	9900	

Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kuzatilayotgan anomal haroratlar hamda u bilan bog‘liq energiya krizislari, undan tashqari ushbu voqeyliklar ta’sirida muqobil energiyani joriy etishga hamda energiya tizimida bozor mexanizmlarini olib kirish maqsadida tabaqali limitlash tizimini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar fonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni ham unga moslashtirish talabi ortib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda bizningcha sitrus mevalarni issiqxonalarda yetishtirishda energiya ta’minotidagi tabaqalashgan limitlash tizimidan foydalanish o‘zining samarali ta’sirini o‘tkazib, sohada muqobil energiyani ko‘lamini ortib borishiga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu rag‘batlantirish dastaklari sitrus mevalarni yetishtiruvchi xo‘jalikda joriy etilgan muqobil energiya turi hamda uning jami talabni ta’minlay olish darajasidan kelib chiqqan holda yondashish mumkin bo‘lib, bizningcha muqobil energiya sifatida quyosh panellari yoki biogaz qurilmalarini o‘rnatgan xo‘jaliklar elektr energiyasi uchun joriy etilgan limitga nisbatan o‘rnatilgan limitning yarmidan ko‘pini muqobil energiya hisobiga qoplaganda, qolgan qismi uchun 25 foizgacha arzonlashgan ta’rif qo‘llash hamda limitni to‘liq muqobil energiya hisobidan qoplagan va davlatga energiya sotishni yo‘lga qo‘ysa davlatning elektr xarid bahosini 30 foizgacha oshirish taklif etiladi (6-jadvalga qarang).

Tabiiy gazga joriy etilgan limitga nisbatan esa, isitish mavsumida o‘rnatilgan gaz sarfi limitining 50 foizigacha qismini muqobil energiya hisobidan qoplaganda

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

